Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 8 (2026) Published August 23, 2026

ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR IMPROVING THE QUALITY MANAGEMENT SYSTEM IN EDUCATIONAL INSTITUTION MANAGEMENT

Ibragimova Gulnozaxon Sayidmurodovna

Senior Lecturer (PhD), Department of Economics, Andijan State Technical Institute

Abstract

This article examines the organizational and economic mechanisms for improving the quality management system in educational institution management. It analyzes the role of modern management approaches, strategic planning, efficient resource utilization, and quality assessment systems in enhancing the quality of education. The study also proposes practical recommendations for improving management mechanisms aimed at increasing the effectiveness and competitiveness of educational institutions.

Keywords

educational institution, management, quality management system, education quality, organizational and economic mechanisms, strategic management, efficiency, quality assessment, innovative management.

TA’LIM MUASSASALARI BOSHQARUVIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА В УПРАВЛЕНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ УЧРЕЖДЕНИЯМИ

Ibragimova Gulnozaxon Sayidmurodovna

Andijon davlat texnika instituti, “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

Ibragimovag668@gmail.com +99890-268-04-75

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim muassasalari boshqaruvida sifat menejmenti tizimini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, strategik rejalashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda sifatni baholash tizimining o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat

qiluvchi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim muassasasi, boshqaruv, sifat menejmenti, ta’lim sifati, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, strategik boshqaruv, samaradorlik, sifatni baholash, innovatsion boshqaruv.

В статье рассматриваются организационно-экономические механизмы совершенствования системы менеджмента качества в управлении образовательными учреждениями. Проанализирована роль современных подходов к управлению, стратегического планирования, эффективного использования ресурсов и системы оценки качества в повышении качества образования. Разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию механизмов управления, направленных на повышение эффективности и конкурентоспособности образовательных учреждений.

Ключевые слова: образовательное учреждение, управление, система менеджмента качества, качество образования, организационно-экономические механизмы, стратегическое управление, эффективность, оценка качества, инновационное управление.

Globallashuv, raqamli transformatsiya va bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ushbu sharoitda ta’lim muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirish, ta’lim xizmatlari sifatini ta’minlash hamda xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, inson kapitalini rivojlantirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ko‘p jihatdan ta’lim muassasalarida boshqaruvning samaradorligi hamda sifat menejmenti tizimining qay darajada tashkil etilganiga bog‘liq.

So‘nggi yillarda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish va ta’lim muassasalarining institutsional salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan. Bunda strategik rejalashtirish, natijadorlikka yo‘naltirilgan boshqaruv, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ichki sifatni ta’minlash tizimlarini rivojlantirish hamda resurslardan oqilona foydalanish

alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida sifat menejmenti tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifatini ta’minlashda sifat menejmenti tamoyillarini boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish, manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini inobatga olish, faoliyat natijalarini muntazam monitoring qilish va uzluksiz takomillashtirish tamoyiliga amal qilish yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Ayniqsa, sifat menejmentining zamonaviy konsepsiyalari, jumladan, Total Quality Management (TQM), ISO 21001 standarti, EFQM mukammallik modeli hamda natijadorlikka asoslangan boshqaruv yondashuvlari ta’lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Sifat menejmenti” (quality management) – bu sifatga yo‘naltirilgan rahbarlik va boshqarishning muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. U sifat menejmenti tamoyillari va dastaklaridan foydalanishga asoslangan, menejmentning barcha funksiyalarini nazarda tutgan holda tashkilotga ta’sir etuvchi uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Sifatli mahsulotga cheklovsiz harajatlar hisobiga bajarilgan mukammal mahsulotlar taalluqli bo‘lib, kamyoblik va qimmatlilik ushbu tushunchaning ikkita farq qiluvchi qirralari hisoblanadi. Ushbu nuqtai nazardan sifat maqom va ustunlikni aks ettirish uchun qo‘llaniladi.

Binobarin, sifatni nisbiy tushuncha sifatida ham qo‘llash mumkin. Ushbu holatda sifat mahsulot yoki xizmatning belgisi (o‘ziga xos xususiyati, atributi) hisoblanmaydi. Sifat to‘g‘risida mahsulot yoki xizmatning mavjud standartlar yoki unga qo‘yilgan talablarga javob berganida gapirish mumkin.

Shunga ko‘ra, sifat o‘z-o‘zidan yakuniy natija bo‘la olmaydi. U faqatgina uning yordamida yakuniy mahsulotning standartga mosligini aniqlash vositasidir. Sifatni nisbiy tushunishda sifatli mahsulot yoki xizmat qimmat yoki mushkul, chiroyli yoki mujmal bo‘lishi shart emas. Shuningdek, u o‘ziga xos, oddiy, siyqasi chiqqan va odatiy bo‘lmasligi mumkin.

Sifat nisbiy tushuncha sifatida ikkita qirraga ega:

- birinchi – bu standart yoki unga qo‘yilgan talabga mos kelishi;

- ikkinchi – iste’molchilar talabiga mos kelishi.

Quality management systems. Bu so‘z inglizcha so‘z birikmasi bo‘lib, “Sifat menejmenti tizimi” (SMT) ma’nosini anglatadi, yana ham aniqrog‘i “Sifatli boshqaruv tizimi” (SBT) deb tarjima qilinsa, bu so‘zning mazmun mohiyatini ISO 9000 konsepsiyasiga hamohang tarzda o‘girilganini bildiradi. YA’ni “Sifatli boshqaruv tizimi” – ISO xalqaro standartining konsepsiyasiga mos tushadi.

Hozirgi vaqtga kelib, zamonaviy sifat menejmenti – bu rahbarlik va qo‘llab-quvvatlashning samarali tarkibi bo‘lib, qo‘yilgan vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi. OTMda sifat menejmenti g‘oyalari va usullaridan foydalanish barcha bo‘g‘inlarda:

OTM darajasida, uning bo‘limlarida, fakultet va kafedralarida, talabalar bilimi, malakasi va ko‘nikmalari shakllanadigan va iste’molchilar uchun “qadriyatlar, qiymatlar” yaratiladigan auditoriyalarida amalga oshirilishi zarurdir.

Sifat menejmenti aniq tamoyil va konsepsiyalarga, ularni xayotga tadbiq etishning amaliy modellariga tayanadi. Eng ko‘p tarqalgan sifati menejmenti modeli 9000 seriyasidagi ISO xalqaro standartlar modeli hisoblanadi. Uning tarkibida ta’lim muassasalarining sifat tizimi Namunaviy modeli ishlab chiqilgan.

Sifat menejmentining zamonaviy modellari asosida to‘liq sifat (Total Quality), TQM tamoyillari va jarayonli yondoshuv g‘oyasi yotadi.

Aynan ana shu yondoshuvlar o‘qituvchi faoliyatida o‘zining aksini topishi lozim.

Ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonining asosiy tamoyillari. Ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonini samarali tashkil etish muayyan tamoyillarga tayanishni talab etadi. Mazkur jarayonda eng muhim omillardan biri - jamoaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishdir. Ta’lim tashkilotlarida, odatda, yuqori saviyaga ega bo‘lgan ziyoli va malakali mutaxassislar faoliyat yuritadi. Hatto texnik xodimlar ham ma’lum darajada bilimli va muloqot madaniyatiga ega bo‘lgan shaxslar bo‘lgani sababli rahbar tomonidan boshqaruv jarayonida muvozanatli yondashuv, hurmat va konstruktiv muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday muhitda samarali boshqaruv faqat buyruqbozlik orqali emas, balki o‘zaro hurmat, ishonch va hamkorlikka asoslangan boshqaruv uslubi orqali amalga oshiriladi. Boshqaruv jarayonida muntazamlik tamoyili alohida o‘rin tutadi. Rejalashtirilgan ishlarning tizimli ravishda amalga oshirilishi,

faoliyatning doimiy nazorat ostida bo‘lishi hamda intizomiy talablarning izchil qo‘llanishi tashkilot faoliyatining barqarorligini ta’minlaydi. Muntazamlik uzoq muddat davomida sezilarli natijalarni yuzaga keltiradigan muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ta’lim muassasalari boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim sharti hisoblanadi. Zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, strategik rejalashtirishni rivojlantirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish hamda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Natijada ta’lim sifati yuksaladi, ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligi ortadi va ularning barqaror rivojlanishi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.

2. Ibragimova.G.S. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini boshqarishning zamonaviy texnologiyalari. // NamDTI Qurilish va ta’lim ilmiy jurnali. – N.: 2025. № Maxsus 4-son. - B. 134-139.

3. Ibragimova.G.S. Umumiy o‘rta maktablarida ta’lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.: ped.fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Andijon, 2026. – 127 bet

4. Kadirkulov. D.A. Ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish. // Maktabgacha va maktab ta’lim jurnali. – N.:2026. № 3(2)-son.